



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices

Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th February, 2025

XALQ SO'ZI GAZETASINING DAVRIY KORPUSINI YARATISH

Mirzarahimov Bahodir Shavkat o‘g‘li

O‘z MU Kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik kafedrasи
2-bosqich magistranti

Annotatsiya:

Ushbu maqola “Xalq so‘zi” gazetasining davriy korpusini yaratish jarayoniga bag‘ishlangan bo‘lib, zamonaviy lingvistik tadqiqotlar va matnlarni chuqur tahlil qilishdagi ahamiyatini yoritadi. Korpus lingvistikasi yordamida gazeta tilining leksik, grammatik va uslubiy xususiyatlarini o‘rganish, ularning o‘zgaruvchanligini kuzatish va til rivojlanish tendensiyalarini aniqlash imkoniyati tahlil qilinadi. Maqolada korpus yaratish tamoyillari, metodologiyasi, texnologik asoslari va amaliy ahamiyatiga e’tibor qaratilgan. Shuningdek, gazeta tilining ta’sirchanlik xususiyatlari, jurnalistik terminologiya va korpus lingvistikasining gazeta matnlarini o‘rganishdagi roli batafsil tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Korpus lingvistikasi, gazeta tili, matn tahlili, lingvistik tadqiqot, Xalq so‘zi gazetasi, jurnalistik terminologiya, tabiiy tilni qayta ishslash (NLP), davriy korpus, stilistik tahlil, leksik xususiyatlar.

Kirish:

Matnlarni lingvistik jihatdan o‘rganish va tahlil qilishda korpus lingvistikasi muhim vositalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, davriy nashrlar tilining o‘zgaruvchanligini kuzatish, ularning stilistik va grammatik xususiyatlarini o‘rganish uchun maxsus korpus yaratish dolzarb masalalardan biri sanaladi. “Xalq so‘zi” gazetasi mustaqillik yillaridan buyon O‘zbekiston ommaviy axborot vositalarining asosiy nashrlaridan biri bo‘lib, uning til xususiyatlarini tizimli ravishda o‘rganish o‘zbek jurnalistikasi va tilshunosligi uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega. Ushbu maqolada “Xalq so‘zi” gazetasining davriy korpusini yaratish jarayoni, uning metodologiyasi va texnologik jihatlari, shuningdek, gazeta tilining ta’sirchanlik xususiyatlari tahlil qilinadi.

“Xalq so‘zi” gazetasining davriy korpusini yaratish zamonaviy lingvistik tadqiqotlar va matnlarni chuqur tahlil qilish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Korpus



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th February, 2025

lingvistikasi hozirgi kunda turli tillarning rivojlanishini o‘rganish, ularning leksik, grammatik va uslubiy xususiyatlarini tadqiq etishda asosiy manbalardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, “Xalq so‘zi” gazetasining davriy korpusini yaratish jarayoni o‘zbek tilshunosligi va jurnalistikasi rivojiga salmoqli hissa qo‘sadi. Ushbu ilmiy tadqiqot asosan korpus yaratish tamoyillari, metodologiyasi, texnologik asoslari va amaliy ahamiyatini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, gazetaning til xususiyatlarini tizimli o‘rganish imkoniyatini yaratadi. Matnlar korpusini yaratish jarayonida dastlabki bosqich sifatida gazetaning mavjud arxivini to‘plash va uni raqamlashtirish zarur. “Xalq so‘zi” gazetasining tarixi mustaqillik yillariga borib taqalib, unda yoritilgan dolzarb mavzular va ijtimoiy-siyosiy muammolar zamonaviy tilshunoslik tadqiqotlari uchun muhim resurs bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Raqamlashtirish jarayonida matnlarni sifatli skanerlash, ular ustida optik belgilarni taniy oluvchi texnologiyalar (OCR) orqali qayta ishslash va matnlarni to‘g‘rilash muhim bosqichlardan hisoblanadi. Ushbu jarayonda sun‘iy intellekt texnologiyalaridan, xususan tabiiy tilni qayta ishslash (NLP) usullaridan keng foydalanish mumkin.

A.Boboyeva tomonidan yozilgan “Gazeta tilida ta’sirchanlikni ta’minlovchi ayrim nutqiy vositalar” maqolasida ommaviy axborot vositalarida qo‘llaniladigan ekspressiv va stilistik vositalarning roli yoritilgan. Gazeta matnlarining ta’sirchanligi ularning auditoriyaga ta’sir qilish darajasi bilan bog‘liq bo‘lib, bunda turli nutqiy vositalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, metafora, metonimiya, inversiya, takror va emfazalar gazeta uslubining o‘ziga xos xususiyatlari sifatida e’tirof etiladi.[1] “Xalq so‘zi” gazetasining davriy korpusini tuzishda gazeta tilining ta’sirchanlik xususiyatlarini hisobga olish ommaviy axborot vositalarining tahliliy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Matnlarning ta’sirchanlik darajasi nafaqat ularning semantik tuzilishi, balki stilistik va pragmatik jihatlariga ham bog‘liq bo‘lib, ushbu jihatlar lingvistik tadqiqotlarda alohida o‘rganilishi lozim. Gazeta tili rasmiy axborot va publicistik janrlarning uyg‘unlashuvi natijasida o‘ziga xos ekspressiv xususiyatlarga ega bo‘lib, unda emotsiyal bo‘yoqdorlik va stilistik qulaylik asosiy o‘rin tutadi. Davriy korpus yaratishda mazkur ta’sirchanlik vositalarini tahlil qilish orqali gazeta tilining o‘zgaruvchanligini kuzatish, ma’lum davrlardagi lingvistik tendensiyalarni aniqlash



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th February, 2025

va o‘zbek jurnalistikasi tilining rivojlanish bosqichlarini o‘rganish mumkin. Shu jihatdan A.Boboyeva tadqiqotlari gazeta tili va uning kommunikativ imkoniyatlarini keng o‘rganishda muhim ilmiy asoslardan biri hisoblanadi.

A.Abdusaidov tomonidan yozilgan “Gazeta tilining ayrim xususiyatlari” asari ommaviy axborot vositalari tilshunosligini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Gazeta tili ommaviy axborot vositalari uchun xos bo‘lgan o‘ziga xos belgilarga ega bo‘lib, uning shakllanishi va rivojlanishi davriy bosma nashrlarning til me’yorlari bilan chambarchas bog‘liq. Gazetalarda qo‘llaniladigan leksik birliklar, uslubiy vositalar va sintaktik modellar ushbu nashrlarning ta’sirchanligini belgilab beradi[2]. Shu nuqtayi nazardan “Xalq so‘zi” gazetasining davriy korpusini tuzish jarayonida gazetalar tilining xususiyatlarini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Gazeta matnlari oddiy va tushunarli bo‘lishi bilan birga, ayrim holatlarda publitsistik uslubning ekspressiv vositalaridan keng foydalanadi. Shuningdek, gazeta tillari o‘z vaqtida yuzaga kelayotgan yangi atamalarni, neologizmlarni va ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarning ta’sirida shakllanadigan yangi ma’nolarni qamrab oladi. Bu jarayonni korpus lingvistikasi yordamida o‘rganish tilning rivojlanish tendensiylarini aniqlashga yordam beradi.

“Xalq so‘zi” gazetasining davriy korpusini yaratishda gazeta tilidagi sintaktik, leksik va uslubiy xususiyatlarning o‘rni katta. Mazkur korpusda matnlarni tahlil qilish orqali til birliklarining davriy nashrlarda qo‘llanilish faolligi ommaviy axborot vositalaridagi til o‘zgarishlarini kuzatish va tahlil qilish imkonini beradi. A.Abdusaidov tomonidan yozilgan mazkur asarda qayd etilgan gazeta tiliga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda korpus tuzish jarayonini olib borish ilmiy va amaliy jihatdan muhim hisoblanadi.

A.Abdurahmonov tomonidan tuzilgan “Gazeta jurnalistikasi terminlarining qisqacha izohli lug‘ati” gazetachilik sohasida ishlovchi mutaxassislar uchun muhim manba hisoblanadi. Bu lug‘at ommaviy axborot vositalarida qo‘llaniladigan atamalarning aniq va izohlangan talqinini taqdim etadi. Shu nuqtayi nazardan “Xalq so‘zi” gazetasining davriy korpusini yaratishda mazkur lug‘atdan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Zero gazetalarda ishlataladigan leksik birliklarni to‘g‘ri anglash va ularning ma’no doirasini to‘g‘ri belgilash korpus lingvistikasining asosiy vazifalaridan biridir[3].



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th February, 2025

Korpus yaratish jarayonida gazetachilik terminologiyasini o‘rganish muhim bosqichlardan biridir. Bu lug‘atda keltirilgan atamalar korpusni aniq tuzish va tahlil qilishda asosiy mezonlardan biri bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Masalan gazeta janrlari uslubiy xususiyatlari va jurnalistik izohlar bilan bog‘liq atamalar korpusning tuzilish tartibida va tahlil qilishda muhim mezon hisoblanadi. “Xalq so‘zi” gazetasining davriy korpusini tuzishda ushbu lug‘atdagi terminlarning tasnifi va ularning to‘g‘ri qo‘llanilishi korpusning ilmiy va amaliyotdagi qiymatini oshiradi. Shu bois gazeta matnlarida uchraydigan jurnalistikaga oid terminlarni tizimlashtirish va ularni korpusda to‘g‘ri aks ettirish uning kelgusi tahlillar uchun ishonchli manba bo‘lishini ta’minlaydi. Shuningdek korpus yaratish jarayonida gazeta jurnalistikasidagi til birliklarining o‘zgarish dinamikasini kuzatish va ularning zamonaviy ommaviy axborot vositalaridagi qo‘llanilishi bo‘yicha tahlillar o‘tkazish mumkin. Bu jarayonda lug‘atda keltirilgan atamalarning turli davrlarda qanday o‘zgarganini o‘rganish va shu orqali jurnalistik uslubning rivojlanish tendensiyalarini aniqlash imkonini yaratiladi. A.Abdurahmonov tomonidan tuzilgan ushbu lug‘at jurnalistik leksika va uning qo‘llanilishini tadqiq qilishda ishonchli manba bo‘lib xizmat qiladi va “Xalq so‘zi” gazetasining davriy korpusini yaratish jarayonida tilshunoslar va jurnalistlar uchun muhim amaliy yo‘naltiruvchi vosita sifatida xizmat qilishi mumkin.

Gazeta matnlarining davriy korpusini yaratishda uni toifalash va annotatsiyalash muhim ahamiyatga ega. Xalq so‘zi gazetasining tahlili shuni ko‘rsatadiki, uning kontenti ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ilmiy-ma’rifiy yo‘nalishlarga bo‘lingan. Korpusning strukturasini shakllantirishda ushbu yo‘nalishlarni alohida toifalarga ajratish va ularning tahlilini chuqurlashtirish zarur. Bu usul lingvistik tadqiqotlar jarayonida terminologiya, uslubiy xususiyatlар, jumla tuzilmalari hamda o‘zbek tilining zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini o‘rganish imkonini beradi.

Korpus lingvistikasi bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar matnlarning morfologik, sintaktik va semantik xususiyatlarini tizimli ravishda o‘rganish uchun lemmatizatsiya, teglash va sintaktik tahlil metodlarini qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi. “Xalq so‘zi” gazetasining davriy korpusi bu usullar yordamida tahlil qilinsa, o‘zbek tilidagi leksik va grammatik o‘zgarishlarni aniqlash hamda til taraqqiyotining dinamikasini kuzatish mumkin bo‘ladi. Ayniqsa, mustaqillikdan keyingi davrda



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th February, 2025

o‘zbek tilida yuz bergen terminologik o‘zgarishlar, yangilangan iboralar va yangi lug‘at birliklari shu kabi korpuslar yordamida tahlil qilinishi mumkin. Korpusning ahamiyatini oshirish uchun uni xalqaro miqqyosdagi lingvistik tadqiqotlar bilan integratsiyalash ham muhimdir. Xususan, “Xalq so‘zi” gazetasining davriy korpusi o‘zbek tilini boshqa tillar bilan taqqoslash, tarjima jarayonlarini tahlil qilish va til o‘rganish metodologiyasini takomillashtirish uchun qulay resursga aylanishi mumkin. Zamonaviy korpus lingvistikasi tamoyillariga ko‘ra, matn korpuslarining aniqligi va sifati ma’lumotlar to‘plami diversifikatsiyasiga bog‘liq. Shu sababli, “Xalq so‘zi” gazetasining korpusi faqatgina turli yillardagi matnlarni emas, balki turli mualliflarning uslubiy xususiyatlarini ham aks ettirishi kerak.

Korpusni yaratish jarayonida statistik va hisoblash lingvistikasi metodlaridan foydalananish orqali til birliklarining chastotaviy tahlili ham amalga oshirilishi mumkin. Bu esa so‘z va iboralarining davriy o‘zgarishlarini kuzatish, dominant til birliklarini aniqlash va matnlar uslubini o‘rganish uchun muhim vosita hisoblanadi. Bunday tahlillar natijasida “Xalq so‘zi” gazetasining uslubiy xususiyatlari, uning axborot ta’siri va ijtimoiy ong shakllanishiga ta’siri haqida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish mumkin. Natijaviy jihatdan, “Xalq so‘zi” gazetasining davriy korpusini yaratish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, u tilshunoslik, jurnalistika va axborot texnologiyalari sohalarida tadqiqot olib borayotgan mutaxassislar uchun muhim tadqiqot manbai bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu korpus asosida so‘z yasalishi, grammatik strukturani avtomatlashtirilgan usullar bilan o‘rganish, o‘zbek tilining tarixiy va zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish imkoniyati yaratiladi. Kelajakda ushbu korpusni kengaytirish va sun‘iy intellekt asosida ishlov berish imkoniyatlarini o‘rganish orqali uning funksionalligini oshirish va milliy lingvistik tadqiqotlarni yanada rivojlantirish mumkin bo‘ladi.

Xulosa

“Xalq so‘zi” gazetasining davriy korpusini yaratish zamonaviy lingvistik tadqiqotlar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu korpus gazeta tilining leksik, sintaktik va stilistik xususiyatlarini o‘rganish imkonini beradi. Korpus lingvistikasi vositalari yordamida gazeta matnlarining o‘zgaruvchanligi, jurnalistik til me’yorlari va uslubiy xususiyatlarini aniq tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada korpus yaratish



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th February, 2025

jarayonida foydalaniladigan texnologiyalar, masalan, OCR va tabiiy tilni qayta ishslash (NLP) usullari yoritilgan. “Xalq so‘zi” gazetasining til xususiyatlarini o‘rganish natijalari o‘zbek tilshunosligi va jurnalistikasi rivojiga hissa qo‘sishi bilan birga, kelgusida boshqa davriy nashrlar tilini tadqiq etish uchun ham muhim ilmiy asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бобоева А. Газета сарлавҳалари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент. 1971. № 2.
2. Абдусайдов А. Газета тилининг айрим хусусиятлари // Мухбир. – Тошкент, 1983. № 4.
3. Абдураҳмонов А. Газета журналистикаси терминларининг қисқача изоҳли лугати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983.